

## ADABIY TA'LIMDA O'QUVCHILARNING TANQIDIY TAFAKKURINI

## MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA

## RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Xojimirzayeva Mohchehra Abrorjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti,

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi, 1-bosqich magistranti

**Annotatsiya.** Maqolada adabiy ta'linda o'quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirishda muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, tanqidiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiluvchi amaliy metodlar tahlil qilingan hamda ta'lim jarayonida bu texnologiyaning samaradorligi asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** adabiy ta'lim, muammoli ta'lim texnologiyasi, tanqidiy tafakkur, mustaqil fikrlash, metodlar.

**Kirish** Bugungi kunda ta'lim jarayonining asosiy maqsadi o'quvchilarga tayyor bilim berish emas, balki ularning mustaqil fikrlashi, tahlil qilish va tanqidiy yondashish qobiliyatini shakllantirishdan iboratdir. Xususan, adabiy ta'linda o'quvchilarning asar matnini chuqur o'rghanish, uni tahlil qilish va o'z shaxsiy munosabatini bildira olish ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda. Shu nuqtayi nazardan muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanish juda muhimdir.

**Muammoli ta'lim texnologiyasining mohiyati va ahamiyati.** Muammoli ta'lim texnologiyasi o'quvchini bilim olish jarayonida faol ishtirok etishga, berilgan

muammoli vaziyatni tahlil qilish va o‘z qarorini qabul qilishga yo‘naltiradi. Bu texnologiya asosida o‘quvchi tayyor bilimlarni emas, balki o‘z mustaqil izlanishi natijasida xulosaga keladi Adabiy ta’limda esa bu texnologiya o‘quvchilarni badiiy asarlar mazmunini anglash va tahlil qilish jarayonida mustaqil fikrlashga undaydi. O‘quvchi o‘qilgan asarga o‘z nuqtayi nazaridan baho beradi va adib fikriga nisbatan tanqidiy munosabat bildiradi. Muammoli ta’lim deganda beriladiga ma'lumotlarni ta’lim oluvchilar ongiga ularning darajasiga mos va muammolarini vujudga keltiradigan yo'sinda o'rgatish tushuniladi. Ta’lim qachonki ushbu yo'sinda olib borilsagina bolaning fikrlash faoliyatida muammoli vaziyatlar vujudga keladi va ular bolani ob'ektiv ravishda izlanishga, tafakkur qilishga va mantiqan to'g'ri ilmiy xulosalar chiqarishni o'rganishga da'vat etadi. Muammoli ta’lim texnologiyasi asosida adabiy ta’limda o‘quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish uchun quyidagi metodlar muhim ahamiyat kasb etadi: Muammoli savollar berish. Asarni o‘rganishda o‘quvchilarga oddiy faktlarni aniqlashga emas, balki voqealar rivojiga ta’sir ko‘rsatgan sabab va oqibatlarni tahlil qilishga yo‘naltirilgan savollar beriladi. Muqobil yakunlar yaratish. Asar tugashi bilan o‘quvchilardan voqealarni o‘z tasavvurlariga ko‘ra yakunlab berish so‘raladi. Muammoli ta’lim - ilmiy bilishni rivojlantirish zarurligini ifodalashning sub'ektiv shaklidir. U muammoli vaqtning, yangi jamiyat rivojlanishi jarayonida bilish va bilmaslik o‘rtasida ob'ektiv ravishda vujudga keladigan vaziyat. Muammoli vaziyat bolaning ma'lum ruhiy holati bo'lib, bu holat ma'lum topshiriqni bajarish jarayonida ziddiyatni anglash tufayli vujudga keladi.

**Muammoli ta’limning asosiy afzalliklari:**

## 1. Tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi

O‘quvchilar mavjud muammoni tahlil qilish, baholash va unga mos yechim topishga harakat qiladilar. Bu ularning tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini kuchaytiradi.

## 2. Faol o‘quv faoliyatini shakllantiradi

Darsda o‘quvchi passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi bo‘ladi. U o‘rganayotgan mavzuga shaxsiy yondashadi, bu esa chuqurroq o‘zlashtirishga olib keladi.

## 3. Mustaqil fikrlash va qaror qabul qilishga o‘rgatadi

Muammoni yechishda har bir o‘quvchi o‘z fikrini bildirishga, asoslashga va qaror qabul qilishga o‘rganadi.

## 4. Motivatsiyani oshiradi

O‘quvchilar uchun darslar qiziqarli va mazmunli bo‘ladi, chunki ular real muammolar bilan shug‘ullanishadi va bu o‘z bilimlarining amaliy ahamiyatini his qilishga yordam beradi.

## 5. Jamoada ishlash ko‘nikmasini rivojlantiradi

Ko‘p hollarda muammolar guruhlarda yechiladi, bu esa o‘zaro hamkorlik, muloqot va fikr almashishga yordam beradi.

## 6. Hayotiy muammolarni hal qilishga tayyorlaydi

O‘quvchilar darsda o‘rgangan muammo yechish uslublarini real hayotdagi vaziyatlarda ham qo‘llashga o‘rganadilar.

## 7. Bilimlarni chuqur va barqaror o‘zlashtirishga yordam beradi

Mustaqil izlanish, tahlil va muhokama orqali olingan bilimlar uzoq vaqt xotirada saqlanadi.

### **Tanqidiy tafakkurni rivojlantiruvchi metodlar.** Bahs va debatlar tashkil qilish.

Asarda ilgari surilgan asosiy g‘oyalarni yuzasidan bahslar o‘tkazilib, o‘quvchilarning o‘z fikrini mantiqan asoslab berish ko‘nikmasi shakllantiriladi.Qiyosiy tahlil. Turli adiblarning bir mavzudagi asarlarini tahlil qilish orqali ularning estetik qarashlari va badiiy yondashuvlari solishtiriladi.Rol o‘ynash. Asardagi qahramonlar obrazini jonlantirish va ularning nuqtayi nazaridan vaziyatlarni baholash topshiriqlari beriladi .Amaliy tajribalar va natijalar. Amaliyot ko‘rsatadiki, muammoli ta’lim texnologiyasi asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchilarning matn ustida mustaqil ishlash malakasi rivojlanadi, ularda o‘z fikrini mustaqil ifoda etish, dalillar keltirish, mantiqiy tahlil qilish ko‘nikmalari shakllanadi. Xususan, adabiyot fanidan olib borilgan tajribaviy darslar natijalariga ko‘ra, tanqidiy tafakkur ko‘rsatkichlari an’anaviy metodlarga qaraganda 25-30% ga oshgani aniqlangan.

### **Muammoli vaziyat.** Muammoli vaziyat o‘quvchini bir qadar qiyin holatga soladi.

Vaziyatdan chiqish uchun u avval egallagan bilimlarini faollashtirishga majbur bo‘ladi. Bularning ham yetarli emasligini bilgach, yangi bilimlarni o‘zlashtirishi kerakligini anglab etadi. Shu sabab muammoli vaziyat o‘quvchilarning aqliy darajasiga mos kelishi, ayni vaqtida uni yangi bilimlar egallahsga yo‘naltiradigan bo‘lishi kerak. Muammoli vaziyat har bir bolaning hayotiy tajribasi va nazariy bilimini hisobga olgan holda yaratilishi kerak. Bunday masalalar qiziqarli bo‘lishi ham kerak. Qiziqarlilik shaxsning aqliy va ruhiy faoliyatiga ijobiy ta’sir etadi. Bu hol xotira,

diqqat, tasavvur va tafakkur jarayonining natijadorligi orttiradi. O'qituvchi beradigan savol-topshiriqlar o'quvchining mustaqil fikrlashini talab qiladigan, tuyg'ularini junbishga keltirib, ruhiyatini qo'zg'aydigan bo'lishi maqsadga muvofiq. Muammo yo'li bilan o'zlashtiriladigan bilimlar hayot, ilm-u fan va bola shaxsi rivojiga kerak bo'lishi, xilma-xil fikrlar, u yoki bu hodisaning turli qirralarini qiyoslashga imkon beradigan xususiyatlarni o'zida mujassam etishi kerak. Muammoli vaziyat yaratish orqali o'qituvchi o'quvchini kuzatish, tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish, tizimga solish singari tafakkur jarayoni bosqichlaridan foydalanishga yo'naltiradi. Bunda bola o'quv materialini shunchaki eslab qolishdan tashqari, bir qator fikriy yumushlarni ham amalga

oshiradi. Ba'zan voqea-hodisa, tushuncha yoki qoidalarni qismlarga ajratib tahlil qilish muammoli vaziyatni hal qilishga olib kelsa, ba'zan tushunchalarni taqqoslash, faktlarni tasniflash orqali dalillarni sintezlash taqozo qilinadi.

O'quv muammosini qo'yish va uni yechish jarayoni o'zaro chambarchas bog'langan didaktik zanjirdir. O'quvchi oldiga muammo qo'yilishi bilan uning yechimi ustida o'laydi, oldingi bilimlarini esga tushiradi, yangisini qidiradi, bu jarayonda yangi muammolar ham kelib chiqadi. Shu tariqa, uzluksiz tarzda yangi bilimlarni o'zlashtirish amalga oshadi. Muammoli ta'limga tarbiyalanuvchining shaxsiga o'quv faoliyatining yadroasi sifatida qaraydi. Muammoli vaziyatdan chiqishga urinish o'quvchini ta'limga kechimining subyektiga aylantiradi. Ma'lumki, muammoli vaziyat shaxsdan tashqarida bo'lmaydi. Bunday ta'limga muammoli vaziyatni hal etish alohida bir o'quvchi bilan o'qituvchi orasidagi

muloqotdan iborat bo'lmay, butun sinf jamoasining qizg'in aqliy faoliyatiga aylanishi zarur. Buning uchun sinfdagi har bir bolaning individual xususiyatlarini ham maksimal darajada inobatga olish kerak bo'ladi. **Muammoli vaziyat metodi.** Muammoli vaziyat metodi - ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning bir qancha echimini topish, eng to'g'ri xulosaga kela olish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir .Eng avvalo "Muammoli vaziyat" metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi darajasi ta'lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi lozim. "Muammoli vaziyat" lar tanlanganda bolaning yosh jihatni, bilim darajasi inobatga olinishi muhimdir. Ular qo'yilgan muammoning echimini topishga qodir bo'lishlari kerak, aks holda echimni topa olmagach, ta'lim oluvchilarning qiziqishlari so'nishiga, o'ziga bo'lgan ishonchlarining yo'qolishiga olib keladi.

"Muammoli vaziyat" metodining tuzilmasi

- guruhlarga bo'lish
- muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablarini aniqlash
- muammoli vaziyatning oqibatlari to'g'risida fikr yuritish
- muammoli vaziyatning yechimini ishlab chiqish
- to'g'ri yechimlarni tanlash

"Muammoli vaziyat" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

- pedagog mavzuga oid muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi.
- pedagog o'quvchilarga muammoni bayon qiladi.

- o'quvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
  - o'quvchilar kichik guruhlarga ajratadi.
  - kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o'rganadilar, muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar.
  - muammoning oqibatlari to'g'risida fikr-mulohazalar olib boradilar.
  - muammoni echishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar, muammoli vaziyatni echish yo'llarini ishlab chiqadilar.
  - kichik guruhlar muammoli vaziyatning echimi bo'yicha o'z takliflarini bildiradilar.
  - barcha xulosalardan so'ng bir xil echimlar jamlanadi.
  - o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyatni echish yo'llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.
- Muammoli vaziyat metodining mohiyati shuki, u bola tanish bo'lgan ma'lumotlar va yangi faktlar, hodisalar o'rtasidagi ziddiyatdir. Bu ziddiyat bilimlarni ijodiy o'zlashtirish uchun harakatlantiruvchi kuchdir.
- Xulosa.** Muammoli ta'lim texnologiyasi o'quvchilarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Bu yondashuv orqali o'quvchilar tayyor bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklanib qolmay, balki mustaqil ravishda savollar qo'yish, muammolarni aniqlash, tahlil qilish va asosli yechimlar topish ko'nikmasini egallaydilar. Ayniqsa, adabiy ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlar asosida fikrlashga undash o'quvchilarning adabiy asarlarni chuqr tahlil qilish, yozuvchining g'oyasini anglash va o'z munosabatini bildirish salohiyatini oshiradi. Demak,

muammoli ta'lim — tanqidiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiluvchi, shaxsga yo'naltirilgan zamonaviy ta'lim metodidir. Bu esa zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi — ijodkor, fikrlovchi va faol shaxsni tarbiyalashga zamin yaratadi Muammoli ta'lim texnologiyasi o'quvchilarning adabiy matnni o'zlashtirish darajasini oshirish bilan birga, ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda ham samarali vosita hisoblanadi. Bu texnologiya asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarni mustaqil fikr yuritishga, tahliliy yondashishga va adabiy asarlarni chuqurroq anglashga undaydi. Kelgusida adabiy ta'limda muammoli metodikani yanada kengroq qo'llash va uni zamonaviy innovatsion usullar bilan boyitish maqsadga muvofiqdir.